

6. WorldSkills Uzbekistan. (2021). Kasbiy malaka va sertifikatlash bo'yicha yillik hisobot. Toshkent. www.worldskills.uz
7. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi. (2022). Xalqaro ishga joylashtirish faoliyati statistikasi (2021–2022). Toshkent. www.migration.uz
8. International Fund for Agricultural Development (IFAD). (2021). Migrant Contributions for Development: Supporting Return and Reintegration in Uzbekistan. Rome: IFAD. <https://www.ifad.org>

TALABALAR UCHUN ONLAYN KURLAR VA SERTIFIKATLASH DASTURLARINI JORIY ETISH: COURSERA, UDEMY, DATACAMP KABI XALQARO PLATFORMALAR BILAN HAMKORLIK QILISH

Raximova Sevinch Abduhamid qizi

SHDPI, O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi 2-23 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida onlayn kurslar va xalqaro sertifikatlash dasturlarini joriy etish masalasi tahlil qilinadi. Coursera, Udemiy va DataCamp kabi platformalar orqali talabalar kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkinligi, ularning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, onlayn kurslar talabalarning bilim olish jarayonini soddalashtirib, moslashuvchan ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, maqolada ushbu platformalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, sertifikatlash, Coursera, Udemiy, DataCamp, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Abstract. This article examines the introduction of online courses and international certification programs in Uzbekistan's education system. It explores how platforms such as Coursera, Udemiy, and DataCamp can enhance students' professional knowledge and skills, increasing their competitiveness in the labor market. The research findings indicate that online courses simplify the learning process and expand flexible education opportunities. The article also provides recommendations for establishing partnerships with these platforms.

Keywords: online education, certification, Coursera, Udemiy, DataCamp, digital learning, distance education, Uzbekistan's education system.

Аннотация. В данной статье рассматривается внедрение онлайн-курсов и международных программ сертификации в систему образования Узбекистана. Анализируется, как платформы Coursera, Udemiy и DataCamp могут способствовать повышению профессиональных знаний и навыков студентов, увеличивая их конкурентоспособность на рынке труда. Результаты исследования показывают, что

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

онлайн-курсы упрощают процесс обучения и расширяют возможности гибкого образования. В статье также предлагаются рекомендации по установлению партнерства с этими платформами.

Ключевые слова: онлайн-образование, сертификация, Coursera, Udemy, DataCamp, цифровое обучение, дистанционное обучение, система образования Узбекистана.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivoji ta’lim sohasida inqilobiy o’zgarishlarga olib kelmoqda. Talabalarining zamonaviy kasbiy ko’nikmalarga ega bo’lishi uchun masofaviy ta’lim va onlayn kurslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro platformalar – Coursera, Udemy, DataCamp kabi onlayn ta’lim tizimlari global miqyosda keng qo’llanilib, O’zbekiston oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ushbu maqola onlayn kurslarning ahamiyati, ularning talabalar bilim olish jarayoniga ta’siri va sertifikatlash dasturlarining samaradorligini tahlil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adabiyot tahlili, so’rovnoma va intervyular hamda tajriba natijalarini tahlil qilish usullari qo’llanildi. O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 200 nafar talabadan so’rovnoma o’tkazildi va onlayn kurslarni o’tagan talabalar bilim darajasidagi o’zgarishlar o’rganildi.

Natijalar (Results). Ushbu tadqiqot yuzasidan so’rovnoma tuzildi va Shahrisabz davlat pedagogika instituti RT 2-23 guruhi talabalari o’rtasida olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, talabalarining 30% onlayn kurslar orqali o’z bilim va ko’nikmalarini oshirganliklarini ta’kidlagan. Coursera, Udemy va DataCamp kurslari moslashuvchan o’quv jadvali, sifatli kontent va xalqaro sertifikat olish imkoniyati bilan ajralib turadi.


So’rovnoma natijalariga ko’ra, talabalar orasida eng ko’p qo’llanilgan platformalar:

Coursera (15%) – keng qamrovli kurslar va universitet hamkorliklari mavjud.

Udemy (10%) – arzon va turli kasbiy yo’nalishlardagi kurslar.

DataCamp (5%) – ma’lumotlar tahlili va dasturlashga ixtisoslashgan platforma.

70% talabalar esa umuman bu platformalar haqida ma’lumotga ega emas ekan (1-diagramma).



“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Muhokama (Discussion). Hozirgi kunda ta’lim tizimi internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida tubdan o’zgarib, turli ta’lim platformalari orqali keng ma’lumot olish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn ta’limning ahamiyati keskin oshdi, ammo ushbu platformalarga bo’lgan talab pandemiya davrida avval ham sezilarli darajada yuqori edi. Raqamli ta’lim platformalari o’qituvchi va talabalarga an’anaviy ta’lim shaklida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam berib, o’quv jarayonida didaktik imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta’limning ulushi ortib, o’quvchilarda mas’uliyat, tashkilotchilik, mustaqillik hamda fikrni aniq ifodalash kabi ko’nikmalar shakllanadi, bu esa ularning o’ziga bo’lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Aralashtirilgan ta’lim modeli an’anaviy usullar va raqamli texnologiyalarni birlashtirgan holda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvda o’quvchilar individual mavzularni mustaqil o’rganish uchun onlayn kurslardan foydalanib, o’z ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Ta’lim platformalari tushunchasi keng tarqalgan bo’lsa-da, uning kelib chiqish tarixi aniq emas. Masofaviy ta’limning ilk shakllari 1840-yillarda Buyuk Britaniyada tashkil etilgan stenografiya kurslaridan boshlangan bo’lib, keyinchalik sinov mashinalari va dasturlashtirilgan ta’lim tizimlari rivojlanishi bilan mustahkamlandi. 1960-yilda PLATO tizimi yaratilib, ta’lim platformalarining zamonaviy shakllanishiga asos solgan. Internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan LMS tizimlari, jumladan, Moodle va Canvas paydo bo’lib, onlayn ta’limni keng miqyosda ommalashtirdi. 1999-yilda “elektron ta’lim” atamasi Britaniyada ilk bor qo’llanilgan va u onlayn ta’lim platformalarining rivojlanishiga yangi yo’nalish bergan [5, 37].

Elektron ta’lim o’quv materiallarini raqamli platformalar orqali taqdim etish va bilim olish jarayonini tashkil qilish tizimidir. 2002-yilda Massachusetts Texnologiya Instituti OpenCourseWare loyihasini ishga tushirib, ta’lim resurslarini ochiq tarzda internetda joylashtirdi. Ushbu tajriba boshqa universitetlarni ham shunday platformalarni rivojlantirishga undadi. 2008-yilda MOOC (Massive Open Online Course) atamasi paydo bo’lib, butun dunyo bo’ylab ochiq onlayn kurslar tizimi sifatida keng ommalashdi. MOOC platformalari orqali ta’lim olish ko’plab ishtirokchilar uchun bepul taqdim etiladi va bu tizimda Coursera, edX, Skillshare, Udemy, Khan Academy kabi platformalar muhim rol o’ynaydi. 2016-yilda MOOC orqali 1800 dan ortiq bepul onlayn kurslar taqdim etilgan bo’lsa, 2024-yilga kelib ushbu raqam bir necha baravar ortdi [7, 26].

Bugungi kunda onlayn ta’lim platformalarida turli sohalarga oid kurslar mavjud bo’lib, ular tabiiy va ijtimoiy fanlardan tortib, dasturlash, biznes, san’at va til o’rganishgacha bo’lgan yo’nalishlarni qamrab oladi. Ushbu platformalar millionlab foydalanuvchilarga ega bo’lib, ulardan foydalanish ko’rsatkichlari yildan-yilga oshib bormoqda. Shunday qilib, onlayn ta’limning joriy etilishi ta’lim jarayonini takomillashtirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ta’limning inklyuzivligini oshirishga xizmat qilmoqda.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Talabalar uchun onlayn kurslar va sertifikatlash dasturlarini joriy etish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Onlayn ta’lim internet orqali masofaviy o’qitish tizimini yo’lga qo’yish orqali talabalar uchun bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu tizim an’anaviy ta’limga nisbatan moslashuvchanligi, individual o’quv dasturlarining mavjudligi va global resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Onlayn ta’limning nazariy asoslari konstruktivizm va o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanadi. Lev Vygotskiy va Jon Dyui kabi pedagoglarning g‘oyalari interaktiv va muammoga yo’naltirilgan o’qitish usullarining shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan [9, 159]. Shuningdek, Jan Piajening konstruktivistik yondashuvi ta’lim jarayonida mustaqil bilim olish tamoyillarini ilgari surgan. Malkolm Noulz esa kattalar ta’limi nazariyasini ishlab chiqqan bo’lib, onlayn ta’limning rivojlanishiga ta’sir etgan muhim olimlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning ko’plab yetakchi universitetlari va ta’lim muassasalari onlayn ta’lim platformalari bilan hamkorlik qilib, turli kurslarni taklif etmoqda. Coursera, Udemy va DataCamp kabi platformalar onlayn kurslar orqali ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, talabalar uchun kasbiy bilim va malakalarni oshirishga xizmat qilmoqda. Coursera platformasi 2012-yilda Endryu Ng [6] va Dafna Koller tomonidan AQShda tashkil etilgan bo’lib, dunyoning eng nufuzli universitetlari bilan hamkorlik qiladi [3]. Udemy platformasi 2010-yilda Eren Bali tomonidan tashkil etilgan bo’lib, amaliy ko’nikmalar, dasturlash, biznes boshqaruvi hamda til o’rganishga qaratilgan kurslarni taklif etadi. DataCamp esa 2013-yilda Jonatan Kornelissen, Martijn Teuvissen va Diter De Mesmaeker tomonidan Belgiyada tashkil etilgan bo’lib, u ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt, dasturlash va analitika sohalarida ixtisoslashgan kurslarni taqdim etadi.

O‘zbekistonda ham onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish bo’yicha muayyan yutuqlarga erishilgan. Davlat va xususiy sektor tomonidan masofaviy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi doirasida onlayn ta’limni rivojlantirish belgilangan. Oliy ta’lim muassasalari masofaviy ta’lim tizimini joriy etish bo’yicha ishlarni olib bormoqda. EdX, Coursera, Udemy kabi xalqaro platformalar bilan hamkorlik qilish bo’yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda mahalliy onlayn ta’lim platformalari ham shakllanmoqda. Ziyonet ta’lim resurslari va elektron kutubxona sifatida xizmat qilmoqda. IT Park Uzbekistan dasturlash va IT bo’yicha onlayn kurslarni taklif etadi. Mohirdev va Najot Ta’lim esa amaliy dasturlash bo’yicha mutaxassislar tayyorlashga yo’naltirilgan platformalar hisoblanadi.

Shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, INHA universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti kabi oliy ta’lim muassasalari onlayn kurslar joriy etish va xalqaro platformalar bilan hamkorlik qilish bo’yicha ishlarni olib bormoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti esa masofaviy ta’lim dasturlarini kengaytirish bo’yicha tadqiqotlar o’tkazmoqda. O‘zbekistonda onlayn kurslarning rivojlanishi bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarning kasbiy bilimlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Onlayn ta’lim va sertifikatlash dasturlari zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo’lib, dunyo miqyosida Coursera, Udemey, DataCamp kabi platformalar onlayn ta’limni rivojlantirishga katta hissa qo’shmoqda. O‘zbekistonda ham onlayn ta’lim bo‘yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda va xalqaro platformalar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilmoqda. Kelgusida onlayn kurslarni davlat ta’lim tizimiga yanada kengroq integratsiya qilish va ularning sertifikatlarini rasmiy tan olish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu platformalardan foydalanish darajasini aniqlash uchun maxsus so‘rovnoma ishlab chiqdik va 23 ta talaba o‘rtasida amalga oshirildi.

Talabalar uchun onlayn ta’limdan foydalanish darajasi bo‘yicha so‘rovnoma

Hurmatli talabalar! Ushbu so‘rovnoma onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish tajribangizni aniqlash va takomillashtirishga qaratilgan. Javoblaringiz anonim saqlanadi va faqat ilmiy maqsadlarda ishlatiladi.

1. Umumiy ma’lumotlar

1. Jinsi:

☐ Erkak

☐ Ayol

2. Yosh:

☐ 18-20

☐ 21-23

☐ 24 va undan katta

3. Qaysi oliy ta’lim muassasasida tahsil olasiz? (yozing)

4. Ta’lim yo‘nalishingiz: (belgilash mumkin)

☐ IT va dasturlash

☐ Iqtisod va biznes

☐ Gumanitar fanlar

☐ Texnika va muhandislik

☐ Tabiiy fanlar

☐ Boshqa: _____

2. Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish

5. Onlayn kurslardan foydalanasizmi?

☐ Ha, muntazam ravishda

☐ Ba’zan foydalanaman

☐ Yo‘q, umuman foydalanmayman

6. Qaysi platformalardan foydalanasiz? (bir nechta belgilash mumkin)

☐ Coursera

☐ Udemey

☐ DataCamp

☐ EdX

☐ Khan Academy

☐ Boshqa: _____

7. Asosan qanday kurslarni o‘qigansiz?

☐ Dasturlash va IT

☐ Biznes va menejment

☐ Tabiiy fanlar

☐ Til o‘rganish

☐ San’at va madaniyat

☐ Boshqa: _____

8. Onlayn kurslarda o‘qishning asosiy sababi nima? (bir nechta javob belgilash mumkin)

☐ Kasbiy bilim va ko‘nikmalarni oshirish

☐ Universitet darslaridan tashqari bilim olish

☐ Ish topish yoki amaliyot o‘tash uchun

☐ Shaxsiy qiziqish

☐ Boshqa: _____

9. Kurslarni o‘rganish paytida qanday muammolarga duch kelasiz?

☐ Ingliz tilini bilmaslik

☐ Internet sifati pastligi

☐ Kurslarning pulli bo‘lishi

☐ Vaqt yetishmasligi

☐ Motivatsiya yetishmasligi

☐ Boshqa: _____

3. Sertifikatlar va ishga joylashish

10. Onlayn kurslardan sertifikat olganmisiz?

☐ Ha, bir necha marta

☐ Ha, lekin faqat bitta kursdan

☐ Yo‘q, sertifikat olmaganman

11. Sertifikat sizga ish yoki amaliyot topishda yordam berdimi?

☐ Ha, katta foydasi tegdi

☐ Qisman yordam berdi

☐ Yo‘q, hozircha yordam bermadi

12. OTM va onlayn platformalar o‘rtasida qanday hamkorliklar bo‘lishini xohlaysiz?

Rahmat! So‘rovnomada qatnashganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Sizning fikringiz onlayn ta’limni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Onlayn kurslar va sertifikatlash dasturlarining joriy etilishi O‘zbekiston ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Coursera, Udemiy va

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

DataCamp kabi xalqaro platformalar bilan hamkorlik qilish talabalar bilimini oshirish, ularning kasbiy rivojlanishiga hissa qo‘shish va xalqaro sertifikat olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelgusida onlayn kurslarni O‘zbekiston universitetlari o‘quv dasturiga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish zarur.

Tadqiqot yakunida O‘zbekiston universitetlari Coursera, Udemy va DataCamp bilan hamkorlik memorandumi imzolashi kerak degan xulosaga kelindi. shuningdek quyidagi takliflar beriladi:

- onlayn kurslarni rasmiy ta’lim dasturlariga kiritish lozim;
- talabalarga bepul yoki subsidiya qilingan kurslarni taqdim etish tizimini yo‘lga qo‘yish kerak;
- sertifikatlarning mehnat bozorida tan olinishi uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida kelishuvlar o‘rnatish zarur.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston talabalarining raqamli ta’lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bali E. Udemy and the rise of self-directed learning [Internet]. Udemy; 2010 [cited 2024 Mar 23]. Available from: <https://www.udemy.com>
2. Cornelissen J., Theuwissen M., De Mesmaeker D. Data science education through interactive platforms [Internet]. DataCamp; 2013 [cited 2024 Mar 23]. Available from: <https://www.datacamp.com>
3. Dewey J. Experience and education. New York: Macmillan; 1938.
4. IT Park O‘zbekiston. O‘zbekistonda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish [Internet]. 2023 yil. Mavjud: <https://www.it-park.uz>
5. Knowles M. The modern practice of adult education: From pedagogy to andragogy. Cambridge: Prentice Hall; 1980.
6. Ng A., Koller D. The online revolution: Education for everyone [Internet]. Coursera; 2012 [cited 2024 Mar 23]. Available from: <https://www.coursera.org>
7. O‘zbekiston hukumati. Raqamli O‘zbekiston – 2030 [Internet]. Toshkent: Raqamli texnologiyalar vazirligi; 2020 yil. Mavjud: <https://www.digital.uz>
8. Piaget J. The origins of intelligence in children. New York: W.W. Norton & Company; 1952.
9. Vygotsky L.S. Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press; 1978.
10. Ziyonet. O‘zbekiston milliy ta’lim resurslari [Internet]. 2023 yil. Mavjud: <https://www.ziyonet.uz>